

YANGI O'ZBEKISTONDA TURIZIM

Fayzullayeva Klara Abdullayevna

Jizzax politexnika instituti “Ijtimoiy fanlar”
kafedrasi o‘qituvchisi

Kalit so‘zlari: Turizm, sayyoqlik, Tomas Kuk, Ibn Battuta, Amir Temur, Karl VI, Genrix IV, Ispaniyalik Klavixo, “Lazirut yo‘li”, “Shoh yo‘li”, “Buyuk ipak yo‘li”, Sariq dengizi, “G‘arbiy o‘lkalar”, Hindistonga, Parfiyagacha, Dunxuan, Avstriya, Angliya, Italiya, Fransiya, Ispaniya , “Turizm to‘g‘risida”gi Qonuni, Turizm marketingi, Turizm menejmenti, Turizmda operatorlik xizmatini, Servis.

Ключевые слова: Туризм, Томас Кук, Ибн Баттута, Амир Тимур, Карл VI, Генрих IV, де-Клавихо, “Лазурный путь”, “Путь короля”, “Великий Шелковый путь”, Желтое море, “западные страны”, до Индии, Парфии, Дуньхуана, Австрии, Англии, Италии, Франция, Испания, закон о туризме, маркетинг туризма, управление туризмом, сервис.

Key words: Tourism, travel, Thomas Cook, Ibn Battuta, Amir Timur, Charles VI, Henry IV, Spanish Clavijo, “Lazirut Road”, “Royal Road”, “Great Silk Road”, Yellow Sea, “Western Lands”, to India, to Parthia, Dunhuang, Austria, England, Italy, France, Spain, Tourism Law, Tourism Marketing, Tourism Management, Tourism Operator Service, Service.

Jahon sayyoqlik tashkilotining ma’lumotlariga qaraganda, har yili o‘rtacha 1,2 mlrd. nafar kishi sayohatga chiqadi. Vaholonki, bundan 10 yil muqaddam ro‘yxatga olingan sayyoqlar soni 576 mln. nafarni tashkil etgan, xolos. Mazkur soha jadal rivojlanishining ko‘plab omillari bor, albatta. Ular ichida eng asosiysi bu dunyonibilish, tarbiya va sog‘lomlashtirishni o‘zida mujassamlashtirilganligidir. Qolaversa, u bunday xizmatlarni tashkil etuvchilarga katta daromad olish imkonini beradi. Hozirgi vaqtida dunyo turizmining jahon yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 10 foiz, xizmatlar eksportida 30 foiz, savdo hajmida 6 foizga yetgani, mehnatga layoqatli aholining 8 foizi shu jabhada mehnat qilayotgani buning yaqqol dalilidir.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat qurishni o‘zining asosiy maqsadi qilib belgilab oldi. Bu ishda turizm sohasi ham etakchi tarmoqlardan biri hisoblanadi. Turizm nafaqat o‘tmishni o‘rganish, o‘zga xalqlar va elatlar bilan tanishish, ularning madaniy yodgorliklaridan baxramand bo‘lish, shuningdek, u katta biznes hamdir.

Avvalo turizim so‘ziga to‘xtalib o‘tsak. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” 639- betida, **TURIZM** (frans. tour — sayr, sayohat) , sayyoqlik — sayohat (safar) qilish; faol dam olish turlaridan biri. Turizm deganda jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog‘lomlashtirish, ma’rifiy, kasbiy amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq to‘lanadigan faoliyat bilan shug‘ullanmagan holda uzog‘i bilan 1 yil muddatga jo‘nab ketishi (sayohat qilishi) tushuniladi.Turizmning tarixi 19-asr boshlariga borib taqaladi. Dastlab Angliyadan Franiyyaga uyushgan sayyoqlik tashkil etilgan (1815 yil). Turizmning asoschisi hisoblanmish ingliz ruhoniysi Tomas Kuk 1843 yilda 1 temir yo‘l sayyoxligini tashkil qildi. Shundan so‘ng u o‘zining xususiy turistik korxonasini tuzdi va 1866 yil dastlabki sayyoxlik guruxlari AQSHga jo‘natiladi. Sharqda arab sayyohi Ibn Battuta 21 yoshida sayohatini boshlab, deyarli barcha Sharq va SHimoliy Afrika mamlakatlarini piyoda kezib chiqdi. Movarounnahrda ilk sayyoohlarning safarlari Amir Temur va temuriylar davrida faollashgan. Amir Temur fransuz qiroli Karl VI va ingliz qiroli Genrix IV bilan doimiy aloqada bo‘lgan. Uning elchisi 1403 yil Parijga kelgan. Ispaniyalik Klavixoning “Buyuk Temurning hayoti va faoliyati” kitobida Movarounnahrdagi ijtimoiy hayot va sayyoohlarning Temur davlatiga intilishi aks etgan.

O‘zbekiston zamonaviy turizm industriyasini rivojlantirish uchun barcha zarur manbalarga ega. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019 yil 5 yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘sishimcha choratadbirlar to‘g‘risida” gi PF 5611 sonli qarorida “2019-2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiysi”ga muvofiq Evropa va Janubi-Sharqiy Osiè mamlakatlari bilan tovar aylanmasi, tashiladigan yo‘lovchilar soni va investitsiyalarni ko‘paytirish uchun respublikadagi transport aloqa tizimini tubdan yaxshilash maqsadida xorijiy aloqalarni yanada mustahkamlashga alohida e’tibor berildi. Bizga ma’lumki Qadimdan, O‘rta Osiyo G‘arb va Sharqni tutashturuvchi yo‘lda joylashgan, ya’ni “ko‘prik” vazifasini bajargan.Eramizdan avvalgi 3-2 ming yillardan “Lazirut yo‘li”, Ahmoniylar imeriyasi davridagi “Shoh yo‘li”, eramizdan avvalgi II asrlardan milodiy XVI asrgacha mavjud bo‘lgan, Xitoydan boshlanib, O‘rta Osiyo orqali o‘tib, Sharq va G‘arb mamlakatlarini bog‘lagan “Buyuk ipak yo‘li” kabi transmagistral savdo yo‘llari dunyo xalqlarining iqtisodiy, siyosiy, madaniy taraqqiyotiga beqiyos hissa qo‘sghan, mamlakatlar o‘rtasida nafaqat savdo aloqalari, balki, diplomatik munosabatlar rivojlanishiga xizmat qilgan. Mamlakatlararo iqtisodiy va savdo aloqalarida savdo yo‘llarining ahamiyati juda yuqori bo‘lgan. Zero, karvon yo‘llari iqtisodiy aloqalarning qon tomirlari hisoblangan. Sariq dengizi qirg‘oqlaridan boshlangan Buyuk ipak yo‘lining yirik tarmog‘i - O‘rta Osiyo orqali, jumladan, Xorazm mintqasidan o‘tib, janubiy va janubiy-g‘arbiy Osiyo hududlaridan O‘rta er dengiziga, undan G‘arbiy Evropagacha borgan bo‘lsa, ikkinchi yo‘nalishi –

Xorazm va Qozog‘iston cho‘llaridan o‘tib, Rossiya va Sharqiy Evropani Xitoy bilan bog‘lagan. Evroosiyo materigini qamrab olgan ushbu transmagistral yo‘lning uzunligi 12800 km tashkil etgan. Xitoy xukmdorlarining “G‘arbiy o‘lkalar” bilan harbiy-siyosiy va savdo aloqalar olib borishlariga intilishlarining natijasi sifatida vujudga kelgan mazkur yo‘l qadimgi davrlardan Osmonesti yurtini O‘rta Osiyo va boshqa mamlakatlar, xususan, Parfiya, Hindiston va Rim imperiyasi bilan izchil aloqalarning boshlanishiga olib kelgan. O‘rta Osiyo xalqlarining Xitoy bilan savdo aloqalarida Farg‘ona mintaqasi asosiy tranzit yo‘l vazifasini bajargan. CHunki, Buyuk ipak yo‘lining Xitoydan O‘rta Osiyoga keluvchi yo‘nalishlarida dastlabki hudud sifatida Farg‘ona vodiysi muhim o‘rin tutgan. Bu davrda Xitoyning Farg‘ona o‘lkasiga nisbatan bunday qiziqishini “G‘arbiy o‘lkalar darvozasi” sifatida joylashgan geostrategik va jug‘rofiy joylashuvi bilan izohlash mumkin. O‘rta Osiyo xalqlarini Xitoy bilan bog‘lovchi savdo yo‘llari ba’zi ma’lumotlarga ko‘ra eramizdan avvalgi bir ming yillik o‘rtalarida vujudga kelgan bo‘lib, mintaqamizning eng janubiy sarhadlaridan Xitoya bevosita qo‘shti bo‘lgan Pomir tog‘lari orqali o‘tgan. Xitoy poytaxtidan chiqqan savdo karvonlari Turfon vohasi va Pomir tog‘ dovonlari orqali Baqtriyaga va undan Hindistonga, Parfiyagacha borgan. SHuni qayd etish kerakki Xitoydan Sharqqa yo‘l olgan barcha savdo karvonlari, mamlakatning eng g‘arbiy chegara shahri sifatida e’tirof etiladigan Dunxuan shahridan o‘tgan. Tadqiqotchilarining ta’kidlashlaricha shu erga kelganda Buyuk ipak yo‘li uch tarmoqqa bo‘lingan Xitoydan O‘rta er dengizigacha etib borgan6 : 1. SHimoliy yunalish: Xami –Borko‘l-Issiq ko‘l-Janubiy Kozog‘iston-SHimoliy Kavkaz-Vizantiya-O‘rta Er dengizi. 2. Markaziy yunalish: Turfon-Qorashar-Kuchu-Pomir tog‘ dovon-Ustrushona-Samarkand-Buxoro-Marv-Eron-O‘rta Er dengizi. 3. Janubiy yunalish: Dunxuan-Lobnor kuli-Tak-lamakon saxrosi-Vohon koridori-Tohariston-Eron-O‘rta Er dengizi. Ushbu yo‘nalishlar tarnsmagistral savdo yo‘llari bo‘lib, asrlar davomida Evroosiyo mintaqasida ruy bergen siyosiy o‘zgarishlar, jarayonlar ta’sirida o‘z yo‘nalishini o‘zgartirib turgan. Ammo, o‘z ahamiyatini saqlab qolgan Amudaryo orqali, yoki uning o‘ng va chap sohillari bo‘ylab o‘tgan savdo yo‘llaridan CHorjo‘y - Buxoro - Samarqand shaharlar orqali Toshkentga etib kelishgan. Xorazmdan Toshkent shaharigacha savdo yo‘li ming verstdan iborat bo‘lgan. Savdo karvonlari Toshkentdan ikkiga bo‘lingan: 1.SHimoliy yo‘l-Toshkent-Ettisuv-Tayanshan tog‘ dovonlar orqali Mug‘uliston gacha va undan Xitoya, yoki Sharqiy Turkiston gacha etib borishgan. 2.Janubiy yo‘l -Toshkent-Farg‘ona vodiysi-Qashg‘ar orqali Xitoygacha va hatto Tibetgacha borishganligi haqida ma’lumotlar bor. O‘rta Osiyo, jumladan, Xivaga, Afg‘oniston orqali qog‘oz, ipak, jun mahsulotlari, shoyi va parcha, zar iplar, teri mahsulotlari, qora murch, kashmir matolari, ziravorlar, xitoy va yapon chinni buyumlari olib kelingan. Xorazmlik savdogarlar, Afg‘oniston xududidan, Xitoyning

G‘ulja, Qashg‘ar, Yorkent kabi shaharlariga, shuningdek, Xitoyning tog‘li, ichki hududlari hisoblangan Katta va Kichik Tibet tumanlarigacha kirib borib mahalliy savdogarlar bilan savdo aloqalarini amalga oshirganlar. Shuni takidlashimiz lozimki G‘arb va Sharq mamlakatlariga o‘tuvchi harqanday savdo karvoni va savdogarlar mamlakatimizni ziyorat qilganlar. Bundan ko‘rinib turibdiki qadimdan turizim bizda mavjud bo‘lgan.

Respublikamizda turizmni rivojlantirish juda katta iqtisodiy samara berishi hammamizga ayon, chunki u xorijga resurs chiqarmay (paxta, gaz, neft) valyuta olib kirish imkonini beradi. Tahlillar shundan dalolat beradiki, ko‘pgina rivojlangan mamlakatlarda turizmdan keladigan daromad boshqa sohalarga qaraganda ancha ko‘proq valyuta tushumlarini keltiradi. Masalan: Turkiya yiliga 4-5 mlrd. dollarlik tovar eksport qilsa, turizm faoliyatidan 10 mlrd. dollardan ortiq daromad oladi. Avstriya, Angliya, Italiya, Fransiya, Ispaniyalarda ham xuddi shunday yuqori ko‘rsatkichlarni ko‘rshimiz mumkin. Mamlakatimizda ham turizmni rivojlantirish borasida bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi va uning mintaqaviy tuzilmalari shtat birliklarining oshirilgani, hududlarda turizm departamentlari va boshqarmalari, hokim o‘rnibosarlari lavozimlari tashkil etilgani mazkur tashkilotlarning imkoniyatlarini kengaytirishda katta rol o‘ynamoqda. O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida”gi Qonuni 2019 yil 18 iyulda qabul qilingan, unda sohaning hozirgi rivojlanish bosqichidan kelib chiqqan holda yangi tushunchalar kiritildi, turizm bo‘yicha davlat siyosatining prinsiplari va asosiy yo‘nalishlari belgilandi. SHuningdek, turistik faoliyat sub’ektlari toifalarga ajratildi. 47 ta davlat fuqarolari uchun viza rejimi bekor qilindi hamda vizasiz rejimga ega mamlakatlar soni 86 taga etdi. Bundan tashqari viza jarayonlarini soddalashtirish maqsadida elektron viza olish imkoniyatiga ega mamlakatlar soni 57 ni tashkil etdi. Buyuk Ipak yo‘li ustida joylashgan Vatanimiz qulay tabiiy-iqlim sharoitlariga boy tarixiy, madaniy merosga va ayni paytda ham ichki, ham xalqaro turizmni rivojlantirish uchun yuqori salohiyatga, zamonaviy turistlik tashkilot va korxonalar bugungi kunda yangi axborot tizimlariga, kompyuter texnologiyalaridan foydalanuvchi texnika bilan ta’minlangan yuqori texnologiyali ishlab chiqarishga ega. Mijoz sifatli xizmatlarni olishi zarur bu davr talabi bo‘lib qolmoqda. Ushbu muammoni amalga oshirishda mutaxasis kadrlar hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Hozirgi davrda mamlakatni iqtisodiy modernizatsiyalash bosqichida turizm va mehmondo‘stlik industriyasi sohasidagi echimini ko‘tib turgan masalalar qatorida, turizm industriyasi mehnat bozorida ishlovchi xodimlarga qo‘yiladigan malakaviy talablarga javob bera oladigan kadrlarni tayyorlash dolzarb masala bo‘lib turibdi. SHularni hisobga olib, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan “Samarqand iqtisodiyot va servis institutini tashkil etish

to‘g“risida” gi qaroriga asosan Samarqand iqtisodiyot va servis institutida ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash belgilandi. Hozirgi paytda ushbu o‘quv dargohida “Turizm marketingi”, “Turizm menejmenti”, “Turizmda operatorlik xizmatini tashkillashtirish”, “Servis” (turizm va mehmonxona xo‘jaligi), ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha kadrlar tayyorlanmoqda. Bundan tashqari Toshkent Davlat iqtisodiyot universitetining halqaro turizm fakulteti va qator turizm kasb-xunar kollejlari bu ishga uz hissalarini qo‘shib kelmokdalar. Turizm sohasining mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy haётidagi o‘rnini to‘g‘ri baholash uchun ushbu sohada statistik hisobga olish tizimini takomillashtirish masalasi ham o‘ta dolzarbdir. Chunki, juda ko‘p turistlar turistik mahsulotlarga to‘langan mablag‘lari bilan birga, mamlakatimizda o‘z ixtiёri bilan ko‘plab tovarlar va xizmatlarni xarid qilishlari mumkin. Ammo ular birorta hisobatda aks ettirilmaydi, chunki hisobga ham olinmaydi. Shu tufayli statistik hisobotni takomillashtirish masalasi ham hal qilinishi lozim bo‘lgan eng muhim tashkiliy mexanizmlarni takomillashtirishga qaratilgan vazifalardan biridir.

Mamlakatimizda turizim soxasida isloxbatlardan amalga oshirilmoqda, yanada turizimni rivojlantirish ularni jalb qilish maqsadida:

-yurtimizda avvalo ichki turizmni rivojlantirib, madaniy yodgorliklar yaqin joylashgan joylarni eski holicha saqlagan holda, xorijiy sayyoohlarni jalb eta olamiz;

-ularni besh yulduzli mehmonxonalar emas, balki shu yurtning urf-odatlari, an'analarini aks ettirgan loyli uylar, eshik derazasi saqlangan xonardonlar ko‘proq qiziqtiradi va ularni saqlab qolish orqali;

-uzoq hududlardagi sayyoohlarni oqimi kam bo‘lgan ammo muhim aziz-avliyolar, arxiologik yodgorlar saqlangan nuqtalardagi ichki turizmni rivojlantirishga katta e’tibor qaratish orqali.

Muxtasar qilib aytadigan bo‘lsak, bugungi kunda mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirish va davlat tomonidan huquqiy tartibga solish borasida katta yutuqlarga erishildi. Mazkur sohani rivojlantirish maqsadida tadbirkorlarga juda katta imtiёz va imkoniyatlar yaratib berilganligi soha rivojining asosiy omili bo‘ldi. Shu bilan bir qatorda ba’zi bir kamchilik va foydalanilmayotgan imkoniyatlar borki, ularni bartaraf etish va bu yo‘lda rivojlangan xorijiy davlatlarning ijobiliy tajribalaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Mavlanov O'. Markaziy Osiyoning qadimgi savdo yo'llari."Akademiya,Toshkent-2008.-B.112.
2. **O'zbekiston Respublikasining Qonuni.**Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 16-apreld qabul qilingan.Senat tomonidan 2019-yil 21-iyunda ma'qullangan.19-Iyul 2019-yil. "Xalq So'zi". 1-3 betlar.
3. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent-2004-yil, 639-640 betlar.
4. B.J.Eshov, A.A.Odilov "O'zbekiston tarixi", II kitob. "Donishmand ziyosi", Toshkent-2020, 84-86 betlar.
5. Hamid Ziyoev "Buyuk Amir Temur sultanati va uning taqdiri". Toshkent - "Ma'naviyat"-2008.
6. Rui Gonsales de Klavixo "Samarqandga Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi". Toshkent - "O'zbekiston"-2010.